

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi v.v.b

RESpublika KENGASHI
“24” mart 2026-yil
Sh. Javlonov

O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida “Mehnat sharoitlarini yanada yaxshilash, ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodislar oldini olish va kasb kasalliklarini profilaktikasi yuzasidan manzilli dasturi”

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
“24” mart 2026-yil
K. Sharipov

№	Tadbir nomi	Natija	Muddati	Bajarish uchun mas’ullar
<i>Mehnat sharoitlarining yaxshilanishini belgilangan tartibda moliyalashtirish, mehnatni muhofaza qilish va xodimlar malakasini oshirish bo‘yicha manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘quv mashg‘ulotlari, seminarlar va davra suhbatlari tashkil etish</i>				
1	O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi va Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida mehnat sohasiga oid davra suhbatlarini tashkil etish va ommaviy axborot vositalarida yoritish.	Mehnat muxofazasi borasida olib borilayotgan ishlarni keng targ‘ib qilish	Yil davomida	O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi Oliy ta’lim muassasalari rahbarlari
2	Vazirlar mahkamasining 2025 yil 24 dekabrda 819-son qarorining 2 ilovasiga asosan xodimlarning o‘rtacha ish haqi saqlangan holda, ularni mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitishni tashkil qilishi, ularning bilimlarini tekshirishi, malakasini oshirish va qayta tayyorlashdan o‘tishlarini ta’minlashi.	Mehnat muxofazasi borasida olib borilayotgan ishlarni keng targ‘ib qilish	Yil davomida	Respublika kengashining viloyat bo‘yicha mas’ul tashkilotchilari, Oliy ta’lim muassasalari boshlang‘ich kasaba uyushma tashkiloti raislari Oliy ta’lim muassasalari rahbarlari
3	Vazirlar mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarorining 2 ilovasiga asosan kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik			

№	Tadbir nomi	Natija	Muddati	Bajarish uchun mas'ullar
	organlarining mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakillari hamda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vazifalar yuklangan mas'ul xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha malaka oshirishlarini tashkil etish.			
Mehnat muhofazasi sohasidagi o'zgarishlarga bag'ishlangan ijtimoiy videoroliklar yaratish, ommaviy axborot vositalari orqali keng tushuntirish ishlari olib borish				
4	Oliy ta'lim muassasalari ish beruvchilari va boshlang'ich kasaba uyushma tashkiloti raislaridan mehnat sharoitlari va muhofazasi to'g'risida, shuningdek ishlab chiqarishdagi barcha baxtsiz hodisalar hamda kasb kasalliklari haqida olingan axborotlar bo'yicha maqola tayyorlash.	Teleko'rsatuv, radioeshit-tirish, gazeta, jurnal, elektron OAVlarida maqola va tahliliy axborotlar	Yil davomida	Respublika kengashining viloyat bo'yicha mas'ul tashkilotchilari, Oliy ta'lim muassasalari boshlang'ich kasaba uyushma tashkiloti raislari
5	Tarmoq hususiyatini inobatga olgan holda quyidagi mavzularda ijtimoiy rolklar tayyorlash: – xodimlarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan holat; – mehnatni muhofaza qilishga oid talablarning buzilishi; – mehnatni muhofaza qilish holatini o'rganish; – mehnatni muhofaza qilish bo'yicha jamoa shartnomalari va kelishuvlarida nazarda tutilgan masalalar; – tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi, baxtsiz hodisalar, kasb kasalliklari haqida; – mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda mayib bo'lishi yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararning o'rni qoplanishi uchun hamda xodimlarning sog'lig'i va mehnati muhofaza qilinishiga bo'lgan huquqlari	Xodimlarning mehnat muhofazasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish	Yil davomida	Respublika kengashining viloyat bo'yicha mas'ul tashkilotchilari, Oliy ta'lim muassasalari boshlang'ich kasaba uyushma tashkiloti raislari
				Oliy ta'lim muassasalari rahbarlari

№	Tadbir nomi	Natija	Muddati	Bajarish uchun mas'ullar
	cheklangan boshqa hollarda xodimning huquqlarini himoya qilib sudga murojaat etish; – xotin-qizlar uchun tashkil etilayotgan ish o‘rinlarida mehnat sharoitlari yaratilishi; – mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha vakil etilgan shaxs va boshqalar.			
Xavfsiz mehnatni tashkil etish tushunchalarini shakllantirish maqsadida ko‘rgazmali materiallar tayyorlash va tarqatish, Xalqaro mehnat tashkiloti, xorijiy mamlakatlar diplomatik korpusi vakillarini taklif etib, “Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni”ga bag‘ishlangan				
“Mehnat muhofazasi xaftaligi”ni o‘tkazish				
6	Oliy ta’lim muassasalarida munosib va xavfsiz mehnatni tashkil etish tushunchalarini shakllantirish maqsadida ko‘rgazmali materiallar tayyorlash va tarqatish.	Xodimlarning mehnat muhofazasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish	Yil davomida	O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi
7	“Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni”ga bag‘ishlangan “Mehnat muhofazasi xaftaligi”ni o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi, konsepsiya loyihasi va ma’ruza tayyorlash. Tadbirlarni davra suhbat, seminar-trening tarzida tashkil etish, sohaga oid ko‘rgazmalar tashkil etish, sog‘lom va xavfsiz mehnat targ‘ibot kompaniyasi, mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo‘yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etishga oid ko‘rik-tanlov g‘oliblarini taqdirlash.	Tarmoq va hudud dasturlari	28 aprelda bag‘ishlangan xafta davomida	O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi
Manfaatdor tashkilotlar bilan xamkorlikda korxonalar, tashkilotlar, muassasalarda ish beruvchilar xodimlar uchun ish o‘rinlarini normativ-xuquqiy va texnik jihatdan tartibga solishga oid hujjatlarga muvofiq xavfsiz etib yaratganligini doimiy tarzda o‘rganish, mehnat huquqlari ta’minlanishi holati usidan jamoatchilik nazoratini belgilangan tartibda amalga oshirish				
8	O‘zbekiston kasaba uyushmalari tizimidagi a’zo tashkilotlarda mehnat xavfsizligi va gigienasi bo‘yicha nazorat-profilaktika ishlarini olib borish.	Nazorat-profilaktika tadbirlari	2026 yil II chorak	O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi

№	Tadbir nomi	Natija	Muddati	Bajarish uchun mas'ullar	
9	Tashkilotlarda xodimlarni dastlabki tarzda va keyinchalik (ish davomida) vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'rikdan o'tkazilayotgani monitoringini olib borish.	Tashkilot va muassasalarda xodimlarning dastlabki tarzda va keyinchalik vaqti-vaqi bilan tibbiy ko'rikdan o'tishlarida chiqimdor bo'lmasiliklariga erishish	2026 yil II-VI choraklar	Respublika kengashining viloyat bo'yicha mas'ul tashkilotchilari, Oliy ta'lim muassasalari boshlang'ich kasaba uyushma tashkiloti raislari	Oliy ta'lim muassasalari rahbarlari
10	Jamoa shartnomasining "Mehnatni muhofaza qilish bo'yimi" bajarilishini monitoringini olib borish, tahlil qilish.	Mehnat muhofazasi bo'yicha bitimga sanitar gigiena vositalari, maxsus kiyim-bosh va shaxsiy himoya vositalari uchun yetarlicha mablag' kiritilishiga erishish	Yil davomida	Respublika kengashining viloyat bo'yicha mas'ul tashkilotchilari, Oliy ta'lim muassasalari boshlang'ich kasaba uyushma tashkiloti raislari	Oliy ta'lim muassasalari rahbarlari
11	Mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo'yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish yuzasidan xudud va tarmoq ko'rik-tanlovini o'tkazish.	Mehnat muhofazasi borasida olib borilayotgan ishlarni keng targ'ib qilish	Rayosat qarorida belgilan-gan muddat	Respublika kengashining viloyat bo'yicha mas'ul tashkilotchilari, Oliy ta'lim muassasalari boshlang'ich kasaba uyushma tashkiloti raislari	Oliy ta'lim muassasalari rahbarlari

№	Tadbir nomi	Natija	Muddati	Bajarish uchun mas'ullar
12	2026-yil davomida amalga oshirilgan ishlar va ishlab chiqarishdagi holatlar yuzasidan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga tahliliy ma'lumot kiritish.	Taxlil natijalariga ko'ra kelgusi yil uchun sifatli dastur tuzish	2026-yil iyun 2026-yil dekabr	O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi
13	XMTning 187, 167, 148, 155-sonli konvensiyalari talablarini inobatga olgan holda mehnat xavfsizligi va gigienasi tartib-taomillariga qat'i rioya etilishi yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.	Tashkilot va muassasalarda xodimlarga mehnat xavfsizligi va gigienasi borasida yetarlicha sharoit yaratilishiga erishish.	Har chorakda	O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi
				Oliy ta'lim muassasalari rahbarlari

O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi
mehnat muhofaza qilish bo'yicha bosh mutaxassisi


D. Samarbekov

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vazirligi mas'ul xodimi


G. Hakimov